

## BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MASOFAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARI

*B.X.Baydjanov*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*FarDU pedagogika va psixologiya fakulteti dekan*

*Maxmudova Maftunaxon Baxromjon qizi*

*Farg'ona davlat universiteti*

*Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turlari bo'yicha)*

*magistratura mutaxassisligi kafedrasida talabasi.*

[Maftuna.bahromovna.m@gmail.com](mailto:Maftuna.bahromovna.m@gmail.com)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda masofaviy ta'lim texnologiyalari ahamiyati haqida so'z boradi.

**Tayanch so'zlar:** Texnologiyalar, masofaviy, kasbiy mahurat, kompetensiya, zamonaviy, hamkorlik.

**Аннотация:** в данной статье говорится о значении технологий дистанционного обучения в развитии профессиональной компетентности при подготовке будущих педагогов.

**Ключевые слова:** Технологии, дистанционка, профессиональные навыки, компетентность, современность, сотрудничество.

**Abstract:** this article talks about the importance of distance learning technologies in the development of professional competence in the training of future pedagogues.

**Key words:** Technologies, remote, professional skills, competence, modern, cooperation

Hozirda zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalari vositalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga sabab bo'ldi. Zamonaviy texnologiyalar masofaviy oliy pedagogik ta'limni yangicha tashkil qilinishiga asos yaratadi. Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan masofaviy o'qitish tizimiga tayyor bo'lmog'ini, ya'ni ilg'or o'qitish texnologiyalarni (Internet, Keys, TV - texnologiyalar va hk.) o'zlashtirgan bo'lishini taqozo etmoqda. oliy ta'lim tashkilotini boshqarishni avtomatlashtirish, o'quv jarayoniga axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi"ning eng asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikaosi Prezidentining 2019 yil 8

oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan Konsepsiyada ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish, oliy ta'lim tashkilotlaridan olinadigan turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimi va o'quv jarayonlari, kutubxona va hujjatlar aylanmasini elektronlashtirishni ta'minlovchi "Elektron universitet" platformasiga bosqichma-bosqich o'tish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilishning elektron tizimini joriy etish asosiy vazifa sifatida. belgilangan.

Masofaviy ta'limda turli ta'lim modellari qo'llaniladi, ammo ularning barchasiga xos bir xususiyat mavjud, bu ham bo'lsa, unda barcha o'quvchi va o'qituvchilar masofa jihatidan. ajratilishidir. Barcha ta'lim turlari kabi masofaviy ta'limning ham har xil modellari ishlab chiqilgan. Bu ta'lim jarayonining quyidagi asosiy tarkibiy qismlari:

- fan mazmunining bayoni;
- amaliy topshiriqlarning bajarilishi
- o'qituvchilar bilan o'zaro bevosita va bilvosita muloqot;
- talaba bilimini nazorat qilish va baholash.

Modellar shu kabi tarkibni hamda uni amalga oshiruvchi texnologiyalarni qo'llaydi. Masofaviy ta'limning turli modellari nafaqat qo'llaniladigan texnologiyalar, balki o'qituvchi va o'quvchilarning mas'uliyati, boshqarilish darajasi bilan ham farqlanadi. Ayrim modellarda o'qituvchilar va ta'lim muassasasi, huddi an'anaviy ta'lim tizimi auditoriyalarida o'qitilganidek, ta'lim jarayonini boshqarish funksiyasini to'liq saqlab qoladi. Boshqa turlarida esa, ta'limni boshqarish ta'lim oluvchilarga o'tadi. Ilmiy manbalarning tarixiy analitik tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, ko'plab mualliflar masofaviy o'qitish modellarini tuzishga o'z e'tiborlarini qaratishgan, jumladan, E.S.Polat rahbarligidagi jamoa o'z monografiyalarida 6 ta modelni ko'rsatgan

Dars jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash ta'lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o'qituvchilar mehnat faoliyatining o'zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishga, pedagogik tizimlarning tarkibiy o'zgarishiga samarali ta'sir etadi. Bu esa pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda o'ziga xos vazifalarni qo'yadi. Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoa, o'qituvchilar, kompyuter dasturchilari, tegishli mutaxassislarning birgalikda faoliyat

olib borishini, ta'lim va tarbiya jarayonini yanada mukammal tashkil qilishni takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

Talaygina oliy ta'lim tashkilotlarining hamkorligiga asoslangan masofaviy ta'lim modelida yaratilgan elektron kitoblar va qo'llanmalar birinchidan, ilmiy jihatdan mukammal va sifatliroq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularga iqtisodiy jihatdan bir muncha kam xarajat qilinadi. Bunday shakldagi masofaviy ta'limni Yevropa qit'asidagi ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar, Buyuk Britaniya hamkorligida "Ta'limda hamkorlik" (Commonwealth of education- 1997 yil) dasturi bo'yicha ishlab chiqildi. Buning natijasida Yevropadagi inglizcha so'zlashuvchi mamlakatlar fuqarolari o'z uylarida turib, maxsus tashkil etilgan masofaviy ta'lim telekommunikasiya tizimi orqali shu mamlakatlarning universitet va kollejlarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari hamkorligida tashkil qilingan masofaviy ta'lim modellarida maxsus tashkil etilgan tizimlar sirtqi va masofaviy shaklda ta'lim oluvchilarga mo'ljallangan bo'lib, yangi ta'lim texnologiyalarining keng qamrovli qo'llanishi natijasida faoliyat yuritadi. Mazkur shaklda telekommunikasiya tizimidan tashqari, multimedia kurslari keng qo'llaniladi va buning natijasida talabalarga tahsil berish bilan bir qatorda, ularning bilimni baholash va attestasiyadan o'tkazish imkoniyatlari kengayadi. Ushbu shaklning iqtisodiy tomondan qulayliklari quyidagilardan iborat:

- yagona dastur asosida tayyorlangan elektron darsliklardan bir necha hamkorlikda faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalarida foydalaniladi;

yagona dastur asosida ta'limning turli shakllarida (kunduzgi, sirtqi, masofaviy) tahsil oluvchi talabalarga tegishli fanlardan tayyorlangan elektron kitoblardan foydalanish imkonini beradi.

Masofaviy o'qitishning tashkiliy shakllari va dasturiy ta'minoti haqida so'z yuritganda zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalari vositalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'lganligini ta'kidlash lozim. Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integrasiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi. Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagida bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertikal o'quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo'ladi. Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikasiya texnologiyalaridan

foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta orqali to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarni jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan. Oldindan tayyorlangan videoma'ruzalar talabalarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi. Yuqoridagilarga asoslanib, ta'lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta'riflarni keltirib o'tamiz.

Bunday o'qitish eng yaxshi an'anaviy va innovasion metodlar, o'qitish vositalari va formalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikasiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir. Masofaviy o'qish bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikasiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart- sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas. Masofaviy ta'lim masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim majmuidir. Masofaviy o'qitish tizimi masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

#### ADABIYOTLAR:

1. Абдукадиров, Абдукаххор Абдувакилевич. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. Монография / А. А. Абдукадиров, А. Х. Пардаев; ред. М. Содикова. Т. Ўзбекистон республикаси фанлар Академияси. ФАН, 2009. - 145 с.
2. Andreev A.A. Distansionnoe obuchenie V sisteme nepreyvnogo professionalnogo obrazovaniya. Avtoreferat. dissert. na sois. uch. st. doktora pedagogicheskix nauk. <http://www.iet.mesi.ru/dis/oglo.htm>
3. Slastenin V.A., Isaev I.F., Mishenko A.I., Shiyanov E.N.. Pedagogika: Uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix uchebnyx zavedeniy -M.: Pedagogika, 1997, S60. 4. Tixomir V. P. Ot elektronnoy obucheniya k Smart-Universitetu. - Sbornik trudov VII Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii «Sovremennye informatsionnye texnologii i IT-obrazovanie», noyabr, 2012 yil.
5. Moiseeva M.V., Polat E.S., Buxarkina M.Yu., Nejurina M. Internet-obuchenie: texnologii pedagogicheskogo dizayna M.: Izdatelskiy dom «Kameron», 2004. -216 с.